

Beruniy tumani

Yanvar 2022 yil

(shartnoma tuzilgan joy)

Bundan buyon "BUYURTMACHI" deb ataluvchi Beruniy tumani MTB nomidan nizom asosida faoliyat olib boruvchi v.v.b D.Sabirova bir tomondan va bundan buyon "YETKAZIB BERUVCHI" deb ataluvchi BERUNIY CHEVARI MChJ nomidan nizom asosida faoliyat olib boruvchi B.Eshnazarov ikkinchi tarafdin mazkur shartnomani quyidagilar haqida tuzdilar.

**1.Shartnomaning predmeti.**

1.1."Yetkazib beruvchi" quyida ko'rsatilgan oziq-ovqat mahsulotlarni MTM larga yanvar oyi uchun mazkur shartnomada ko'rsatilgan muddatlarda "Xaridorga" yetkazib berishni o'z zinmasiga oladi, Xaridor esa, ko'rsatilgan mahsulotlarni qabul qilish va mazkur shartnoma shartlarida ularning haqini o'z vaqtida to'lash majburiyatini oladi.

№	Mahsulot nomi	O'lchov birligi	Narxi	Miqd ori	Summasi	Aktsiz solig'i		QQS		Yetkazib berishning QQSni hisobga olgan holda qiymati
						stavkasi	summa si	stavkasi	summas i	
A	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10
1	Non (500 gr )	dona	11 068	1 400	15 495 200	-	-	-	-	15 495 200
<b>Jami to'lashga</b>					<b>15 495 200</b>	<b>0,0</b>	<b>0,0</b>	<b>0,0</b>	<b>0,0</b>	<b>15 495 200</b>

1.2 Shartnomaning umumiy summasi **15495200** (O'n besh million to'rt yuz to'qson besh ming ikki yuz so'm) ni tashkil qiladi.

**2. YETKAZIB BERISH VA HISOB-KITOBBLAR SHARTLARI**

2.1. "Buyurtmachi" mazkur shartnomani g'aznachilik bo'linmasida ro'yxatga olingan kundan boshlab 10 kalendar kuni ichida qonunchilikka muvofiq, shartnoma umumiy summasidan 30 % miqdorida (shartnoma summasidan 30% miqdorida) oldindan to'lash majburiyatini oladi, qolgan 70% ni tovarni olgandan so'ng 15 kalendar kuni ichida qabul qilish-topshirish dalolatnomasi, hisob-faktura va v.b. asosida to'laydi.

2.2. "Yetkazib beruvchi" avans mablag'lari tegishli hisobvarag'iga kelib tushgan vaqtdan boshlab 3 kalendar kuni ichida tovarni yetkazib berish majburiyatini oladi.

2.3. "Yetkazib beruvchi" amaldagi davlat standartiga muvofiq tovarni yetkazib berishi shart.

2.4. "Buyurtmachi" tovarlarni qabul qilishda "yetkazib beruvchi" ishtirokida olinayotgan tovarlarning to'liqligini va sifatini savdolarni o'tkazish to'g'rizidagi e'londa (buyurtmanomada) ko'zda tutilgan boshqa talablarga muvofiqligini tekshirishi shart.

2.5. Agar mazkur shartnoma bilan boshqa hollar ko'zda tutilmagan bo'lsa, tovarlarni tashish va tushirish bo'yicha barcha xarajatlar yetkazib beruvchi hisobidan amalga oshiriladi.

2.6. Buyurtmachining roziligiga ko'ra tovar muddatidan oldin yetkazib berilishi mumkin.

2.7. Yetkazib berilgan tovar bevosita buyurtmachining mas'ul hodimlari tomonidan dalolatnoma bo'yicha qabul qilinadi va unda yetkazib berilgan tovarlarning miqdori, uning sifati ko'rsatiladi.

2.8. Mazkur kontrakda ko'zda tutilgan tovarlarni yetkazib berish, mazkur shartnomaga muvofiq amalga oshiriladi.

**3.Tomonlarning huquq va majburuyatlari**

3.1. Buyurtmachining huquqlari:Yetkazib beruvchidan shartnomani bajarish uchun zarur bo'lgan davlat standartlari va boshqa me'yoriy hujjatlar bilan ta'minlashni talab qilish;

Buyurtmachi hisobidan tovarlar tashib keltirilganda, yetkazib beruvchidan transport xarajatlarini qoplab berishni talab qilish, agar mazkur shartnomaning shartlaridja boshqa hollar belgilanmagan bo'lsa;

Yetkazib beruvchidan joylashtirilgan buyurtmanomaga ko'ra mazkur shartnomaga muvofiq, tegishli sifat, assortiment bo'yicha tovarlarni yetkazib berishni talab qilish;

Sifatsiz tovar yetkazib berilganda o'z ixtiyoriga ko'ra quyidagilardan birini talab qilish:

- tegishli sifatdagi shunga o'xshash tovar bilan almashtirib berish;

- kamchiliklarni beg'araz bartaraf etish;

- Yetkazib beruvchidan mazkur shartnoma shartlarini bajarmaganligi yoki tegishli darajada bajarmaganligi natijasida yetkazilgan zararni qoplab berishni talab qilish.

3.2. Buyurtmachining majburiyatlari:

- mazkur shartnomaga muvofiq o'zining joylashtirgan buyurtmanomasi bo'yicha yetkazib berilgan tovarlarni qabul qilish;

- tovarlarning qiymatini mazkur shartnomada belgilangan narxda va muddatda to'lash.

3.3. Yetkazib beruvchi quyidagi huquqlarga ega:

- "Buyurtmachidan" oldindan to'lov va yetkazib berilgan tovarlar uchun yakuniy hisob-kitoblarni O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida ko'zda tutilgan tartibda va hajmlarda amalga oshirishni talab qilish;

- Buyurtmachidan joylashtirgan buyurtmanomaga muvofiq, yetkazib berilgan tovarlarni asossiz ravishda qabul qilmaslik natijasida yetkazilgan zararlarni qoplab berishni talab qilish.

3.4. Yetkazib beruvchining majburiyatlari: - Buyurtmachiga tovarlarni mazkur shartnomaga muvofiq belgilangan muddatda, miqdorda va sifatda yetkazib berish;

- agar tovarlarni yetkazib berish jarayonida yetkazib beruvchi shartnoma shartlari va me'yorlardan va yoki O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligidan chetga chiqishga yo'q qo'ygan hollarda Buyurtmachining talabi bo'yicha 10- kun muddat ichida barcha aniqlangan kamchiliklarni beg'araz bartaraf etish.

3.5. Mazkur shartnoma belgilangan tartibda mazkur shartnoma shartlari va talablari va O'zbekiston Respublikasi amaldagi qonunchiligiga muvofiq ijro etilishi shart.

3.6. Tomonlar o'z zimmlariga olgan barcha majburiyatlarning ijrosini ta'minlagan taqdirda shartnoma bajarilgan hisoblanadi.

#### 4. TOMONLARNING JAVOBGARLIKLARI

4.1. Buyurtmachi:

Tovarlar tanlab olmaslik, shuningdek yetkazib beruvchi shartnomada belgilangan muddatda (davrdan) ularni yetkazib berganda tovarlarni olishni asossiz ravishda rad etganlik uchun sotib oluvchi yetkazib beruvchiga tanlab olinmagan (o'z muddatida olinmagan) tovarlar qiymatining 5 foizi miqdorida, tez buziladigan tovarlar bo'yicha esa — 10 foiz miqdorida jarima to'laydi.

Tovarlar tanlab olinmagan (olish asossiz rad etilgan) hollarda, yetkazib beruvchi jarima undirishdan tashqari, ushbu tovarlar mavjudligining kafolatlarini taqdim etgan holda, tanlab olinmagan (o'z muddatida olinmagan) tovarlar qiymati to'lanishini talab qilishga haqlidir.

4.2. Yetkazib berilgan tovarlar haqini o'z vaqtida to'lamaganlik uchun buyurtmachi yetkazib beruvchiga o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun kechiktirilgan to'lov summasining 0,4 foizi miqdorida, ammo kechiktirilgan to'lov summasining 50 foizidan ortiq bo'lmagan miqdorida penya to'laydi.

4.3. Yetkazib beruvchi:

- savdolar qatnashish uchun taqdim etilgan hujjatlarning ishonchiligi;

- miqdor, sifat, texnik parametrlar, shuningdek taklif etilayotgan tovarlarni yetkazib berish muddatlari va joyi bo'yicha yetkazib beruvchi buyurtmanomalari shartlarining buyurtmachi buyurtmanomalarida nazarda tutilgan shartlarga muvofiqligi;

- savdolar shartlarining boshqa buzilishlari;

- tuzilgan shartnoma shartlarining bajarilmaganligi uchun javob beradi.

4.4. Agar yetkazib berilgan tovarlar sifati, assortimenti va navi bo'yicha standartlar, texnik shartlar, namunalarga (etalonlarga) qonun hujjatlarida yoki xo'jalik shartnomasida belgilangan boshqa majburiy shartlarga mos kelmasa, sotib oluvchi (buyurtmachi) tovarlarni qabul qilish hamda ularning haqini to'lashni rad etib, yetkazib beruvchidan sifati, assortimenti va navi lozim darajada bo'lmagan tovarlar qiymatining 20 foizi miqdorida jarima undirib olishga, agar tovarlar haqi to'lab qo'yilgan bo'lsa, to'langan summani belgilangan tartibda qaytarishni talab qilishga haqlidir. Sifati, assortimenti va navi lozim darajada bo'lmagan tovarlar yetkazib berganlik uchun jarima yetkazib beruvchidan aktseptsiz tartibda undirib olinadi.

4.5. Tovarlar yetkazib berish muddatlari kechiktirib yuborilgan, to'liq yetkazib berilmagan, tovar yetkazib beruvchi sotib oluvchiga (buyurtmachiga) kechiktirilgan har bir kun uchun majburiyat bajarilmagan qismining 0,5 foizi miqdorida penya to'laydi, biroq bunda penyaning umumiy summasi yetkazib berilmagan tovarlar, bajarilmagan ishlar yoki ko'rsatilmagan xizmatlar bahosining 50 foizidan oshib ketmasligi lozim. Penyani to'lash shartnoma majburiyatlarini buzgan tarafni tovarlarni yetkazib berish muddatlarini kechiktirib yuborish, to'liq yetkazib bermaslik, oqibatida yetkazilgan zararni qoplashdan ozod etmaydi.

4.6. Marka belgisi qo'yilmagan yoki lozim darajada markirovka qilinmagan tovarlarni, shuningdek idishsiz yoki o'ralmagan tovarlarni yoxud tegishli idishga joylanmagan yoki lozim darajada o'ralmagan tovarlarni yetkazib berganlik uchun yetkazib beruvchi sotib oluvchiga (buyurtmachiga) bunday tovarlar qiymatining 5 foizi miqdorida jarima to'laydi. Tovarlar qabul qilingandan keyin yana jo'natilishi yoki

saqlanishi kerak bo'lgan hollarda sotib oluvchi (buyurtmachi) jarima undirishdan tashqari, o'z kuchi bilan, lekin yetkazib beruvchi hisobidan tovarlarni o'rashga va idishlarga joylashga, yoxud bir shahardagi yetkazib beruvchidan tovarlarni o'rab berish yoki idishlarga joylab berishni talab qilishga haqlidir.

## 5. NIZOLARNI HAL ETISH TARTIBI

5.1. Kelishmovchiliklar va nizolar kelib chiqqan taqdirda, tomonlar, qoidaga ko'ra, mustaqil ravishda ularni sudgacha hal etish choralarini ko'radilar.

5.2. Tomonlar kelishmovchilik va bahslarni hal etish uchun bevosita Beruniy tumanlararo iqtisodiy sudga murojaat qilishga haqlidir.

5.3. Tomonlar sudga murojaat qilgan taqdirda, sud ishi javobgar joylashgan manzildagi iqtisodiy tumanlararo sudida ko'rib chiqiladi.

## 6. FORS-MAJOR

6.1. Ushbu shartnomaga asosan majburiyatlarni bajarilmasligi holatlari yengib bo'lmaydigan kuchlar (fors-major) holatlar natijasida vujudga qelganda tomonlar o'z majburiyatlarini bajarmaslikdan qisman yoki to'liq ozod bo'ladilar.

6.2. Yengib bo'lmaydigan kuchlar (fors-major) holatlariga tomonlarning irodasi va faoliyatiga bog'liq bo'lmagan tabiiat hodisalari (zilzila, ko'chki, bo'ron, qurg'oqchilik va boshqalar) yoki ijtimoiy-iqtisodiy holatlar (urush holati, qamal, davlat manfaatlarini ko'zlab import va eksportni taqiqlash va boshqalar) sababli yuzaga kelgan sharoitlarda tomonlarga qabul qilingan majburiyatlarni bajarish imkonini bermaydigan favqulodda, oldini olib bo'lmaydigan va kutilmagan holatlar kiradi.

6.3. Shartnoma tomonlaridan qaysi biri uchun majburiyatlarni yengib bo'lmaydigan kuchlar (fors-major) holatlari sababli bajarmaslik ma'lum bo'lsa, darhol ikkinchi tomonga bu xaqda 10 kun ichida ushbu holatlar harakati sababini dalillar bilan taqdim etishi lozim.

6.4. Shartnomaga asosan majburiyatlarni ijro qilish muddati ushbu yengib bo'lmaydigan kuchlar (fors-major) holatlar davom etish muddatiga qadar uzaytiriladi. Agar yengib bo'lmaydigan kuchlar (fors-major) ta'siri 60 kundan ortiqroq davom qilsa, tomonlar tashabbusiga binoan shartnoma bekor qilinishi mumkin.

## 7. BOSHQA SHARTLAR

7.1. Ushbu shartnomada tomonlarning ko'zda tutilmagan o'zaro munosabatlari O'zbekiston Respublikasi qonunlari bilan tartibga solinadi.

## 8. SHARTNOMANING AMAL QILISH MUDDATI

8.1. Mazkur shartnoma g'aznachilik bo'linmalarida majburiy ro'yxatga olingan kundan boshlab kuchga kiradi va 2022 y. "31" dekabrgacha amal qiladi.

8.2. Shartnoma ikki asl nusxada tuzildi hamda ikkisi ham bir xil yuridik kuchga egadir.

8.3. Shartnoma taraflarning xabarnomasiga ko'ra, qo'shimcha kelishuvsiz bekor qilinishi mumkin. Tomonlar o'z zimmlariga olgan barcha majburiyatlarning bajarilishini ta'minlagan hollarda shartnoma bajarilgan hisoblanadi.

8.4. Shartnomaning amal qilish muddatini tugashi tomonlarni javobgarlikdan ozod qilmaydi.

## 9. YURIDIK MANZILLARI VA REKVIZITLARI

«YETKAZIB BERUVCHI»	«BUYURTMACHI»
«BERUNIY CHEVARI» MChJ	Beruniy tumani Maktabgacha ta'lim bo'limi (MTB)
Manzil: Beruniy tuman Sheroziy № 6	Manzil: Beruniy tumani Beruniy ko'chasi №19-uy
Tel./faks 97-131-94-14	Tel./faks 99-317-57-58
x'r 20208000200863255001	Shg'h: 100022860352077091100251001
x'r _____	Tashkilotning STIR i : 207267432
Bank nomi: ATB Agrobank Beruniy f.	IFUT (OKONX): 92310
MFO: 00607	Beruniy tumani bo'yicha G'aznachilik bo'linmasi
STIR: 305444037	YaG'H:23402000300100001010
IFUT (OKONX)	Bank nomi: Markaziy bank Toshkent shax BBXKKM
	MFO:00014
	G'aznachilik bo'linmasining STIR i:201122919

«Yetkazib beruvchi»  
M.O.   
Imzo  
B. Eshnazarov  
F.I.Sh

## 10. Taraflarning imzo va muxrlari.

«Buyurtmachi»  
M.O.   
Imzo  
v.v.b D. Sabirova  
F.I.Sh

## YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUIJATLARNING QONUN HUIJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO'G'RSIDA HUQUQIY XULOSA

**1. Loyihaning turi:** Oldi-sotdi shartnoma.

**2. Loyihaning nomi:** BERUNIY CHEVARI MChJ nomidan ustav asosida faoliyat olib boruvchi 15495200 so'mlik oziq-ovqat mahsulotlarni olishi yuzasidan oldi-sotdi shartnomasi tuzish to'g'risida.

**3. Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma'lumot:** Beruniy tuman maktabgacha ta'lim bo'limi 2022 yil «13» yanvar

**4. Xulosa:** Loyiha amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan va uni qabul qilish maqsadga muvofiq.

**Bosh yuriskonsult**

2022 yil «14» yanvar



**A.Kamalbaev**